



IQTISODIYOTDA ISHLAB CHIQRISH OMILLARI

ФАКТОРЫ ПРОИЗВОДСТВА В ЭКОНОМИКЕ

FACTORS OF PRODUCTION IN THE ECONOMY

Xayitov Marvarbek Sherbekovich

Buxoro Davlat Texnika Universitet Iqtisodiyot va menejment kafedrası
xizmat ko`rsatish va raqamlashtirish fakultet bitiruvchisi

Nabiyeva Feruza Ravshanovna

Buxoro Davlat Texnika Universitet Iqtisodiyot va menejment kafedrası
xizmat ko`rsatish va raqamlashtirish fakultet talabasi

Annotatsiya

Ushbu maqolani yozishadan maqsad ishlab chiqarish har qanday iqtisodiyotning asosini tashkiletadi, chunki bu yerda tirikchilik ne`matlari yaratiladi. Hozirgi zamonga kelib, ishlab chiqarish 5 omilga bo`lingan. Ishlab chiqarishda ishchi kuchi uning birlamchi omili deb hisoblanadi. Bu maqolani yozishdan maqsad iqtisodiyotda ishlab chiqarishning qay darajada o`sib borilayotgani hamda ishlab chiqarishning inson hayotidada qay daraja o`rin egalashi. Xulosa qilib aytganda ishlab chiqarishning kelib chiqish omillari hamda uning samaradorligi.

Аннотация

Цель данной статьи — объяснить, что производство является основой любой экономики, поскольку именно здесь создаются жизненные блага. В настоящее время производство подразделяется на 5 факторов. В производстве труд считается его главным фактором. Цель данной статьи — определить степень роста производства в экономике и его роль в жизни человека. Иными словами, факторы возникновения производства и его эффективность.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th July 2025

Annotation

The purpose of writing this article is to explain that production is the basis of any economy, because it is here that the goods of life are created. Nowadays, production is divided into 5 factors. In production, labor is considered its primary factor. The purpose of writing this article is to determine the extent to which production is growing in the economy and what role production plays in human life. In short, the factors of origin of production and its efficiency

Kalit soʻzlar: Ishlab chiqarish omillari, moddiy-ashyoviy omillar, shaxsiy-insoniy omillar, ishlab chiqarish sektorlari, natural va tovar ishlab chiqarish, isteʼmil buyumlari va moddiy ishlab chiqarish, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish chegarasi, milliy boylik.

Ключевые слова: Факторы производства, материальные факторы, личные и человеческие факторы, производственные отрасли, натуральное и товарное производство, потребительские товары и материальное производство, производительность труда, граница производства, национальное богатство.

Keywords: Factors of production, material factors, personal and human factors, production sectors, natural and commodity production, consumer goods and material production, labor productivity, production frontier, national wealth.

Ishlab chiqarish amaliyotida qoʻllanilayotgan barcha resurslar ishlab chiqarish omillari, deb aytiladi. Bevosita ishlab chiqarish jarayonida qoʻllanadigan resurslar boʻlib; yer (tabiat), ishchi kuchi, kapital, tadbirkorlik faolligi (tadbirkorlik qobiliyati) kabi omillar hisoblanadi.

Iqtisodiyotda ishlatilmayotgan resurslar tarkibidagi oʻzgarishlar iqtisodiy oʻsish dinamikasiga salmoqli taʼsir koʻrsatmoqda. Resurslardan foydalanish samaradorligi darajasi iqtisodiyot boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkichdan yuqori boʻlgan tarmoqlar ulushining oʻsishi samaradorlikning umumiy darajasini oshirmoqda va aksincha. Iqtisodiyot tarkibida, material sigʻimi (avvalo energiya sigʻimi yuqori), kapital sigʻimi va suv sigʻimi yuqori tarmoqlar ulushini kamaytirish, mehnat salohiyatidan


International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

samarali foydalanish vazifasi O'zbekiston uchun muhimdir. Ishlab chiqarish — jamiyatning yashashi va taraqqiy etishi uchun zarur bo'lgan moddiy boyliklar (turli iqtisodiy mahsulotlar)ni yaratish jarayoni; ishlab chiqarish omillarini iste'mol va investitsiyalar uchun mo'ljallangan tovarlar va xizmatlarga aylantirish.



1.1 rasm: Ishlab chiqarish omillari.

Ishlab chiqarish omillari noz – ne'matlarni yaratishda har xil darajada ishtirok etadilar. Shunga qarab ular 3 ta guruhga ajratiladi.

1. shaxsiy - insoniy omillar
2. moddiy omillar
3. axborot – information omillar

Shaxsiy ishlab chiqarish va insoniy omillar – bu ish kuchi , uning amal qilish natijasi bo'lgan . Ish kuchi – bu insonning mehnat qilishga qaratilgan jismoniy va aqliy qobilyatidir. Bu qobilyat sohibi har bir mehnatga layoqli kishidir. Mazkur qobilyat amalda ishlatilganda mehnat yuz beradi. Ish kuchimi faqat jismoniy kuch bilan cheklab bo'lmaydi. Ish kuchi sohiblari bilim, malaka, mahorat va ish tajribasining ham sohiblari bo'ladilar. Sifat jihatdan – bu ishlovchilarning malaka mahorati , bilimi hamda tajribasi ko'zda tutiladi. Ayni damda malaka va bilimga qaratilayotgan imkoniyatlar jadal tus olmoqda. Vaholanki ishchi kuchi bu shunday omilki uniinsondan ajratib bo'lmaydi , umoddiy shaklga hyam ega emas u insonning



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

jismida mujassam ya`ni insoniy omildir. Insonning jismoniy holatidan kelib chiqadi. Shu sababli uni ishlab chiqarishdagi **inson kapitali** deb atashadi .

Insoniy omilni cheklab bo`lmaydi ayniqsa ishlab chiqarishga qaratilgan bo`lsa. Ishlab chiqarish yuz berganda tabiat in`om etgan ashyo- materiallar mehnat yordamida qayta ishlanishi kerak. Shu sababli ishlab chiqarishda ham moddiy omillar qatnashadi. Ishlab chiqarishning moddiy – ashyoviy omili bu uning uchun zarur bo`lgan barcha mehnat vositalari va moddiy shakldagi ashyolardir.

Ishlab chiqarish ma`lum bir sohalardahar xil ko`rinadi.

1.1 Kapital ishlab chiqarish omili sifatida moddiy ya`ni mehnat vositalari shakli olinadi: **Kapital** lotincha so`zdan olingan bo`lib (lotincha: *capitalis* — bosh, asosiy), sarmoya — keng ma'noda — o'z egasiga daromad keltirish xususiyatiga ega bo`lgan jami vositalar va mablag'lar; yangi qiymat keltiruvchi, o'zini o'zi ko`paytiruvchi qiymat. Tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarish uchun kishilar tomonidan yaratilgan resurslar; tor ma'noda — ishlab chiqarish vositalari ko`rinishidagi ishga qo'yilgan, ishlab turgan daromad manbai (ashyoviy kapital). Kapitalning paydo bo'lishiga tovar ishlab chiqarish, tovar muomalasi dastlabki shart hisoblanadi.

1.2 Pul kapitali – bu (sarmoya) — ashyoviy kapital sotib olish uchun sarflanadigan pul vositalarini ifoda etadi, ya'ni pul kapitalga aylanishi uchun ishlab chiqarishga avanslanadi. Iqtisodiy nazariyada kapital ishlab chiqarish omillaridan biri tarzida izohlanadi. Qiymatning ko`payishi inson mehnati (ish kuchi) va ishlab chiqarish vositalari (xom ashyo, mashina, stanoklar) birlashganda, ya'ni ishlab chiqarish sharoitida yuz beradi.

1.3 Kapital bir necha turga bo`linadi ya`ni

1. Kapital sanoat kapitali,

2. savdo kapitali

3. ssuda kapitali

4. sudxo`rlik kapitali (tarixiy) shakllarida faoliyat ko'rsatadi

Ishlab chiqarishda mehnat jarayoni : bu kishining aqliy va jismoniy kuch qobilyatlrining aniq maqsadini ko`zlagan holda va yaratuvchilik yo`lida sarflanadi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econferences.com

20th July 2025

Ya'ni yaratuvchilik bu inon o'z mehnati bilan yaratgan barcha mehnat jrayoni va uning samaradorligi. Ishlab chiqarish eng avvalo omillarning sifatiga so'nga miqdorig qaraydi. Agarda mehnat sifati texnika darajasidan orqada qolsa nomutanosiblik yuzaga keladi.

1.4 Natural ishlab chiqarish - o'z ehtiyojlarini o'zi yaratgan mahsulot va xizmatlar bilan qondiradigan xo'jalik. Natural xo'jalik qo'l mehnatiga asoslanadi, mehnat unumdorligi past bo'lgan ko'hna mehnat qurollari ishlatiladi. Natural xo'jalikning kengayishi yangi resurslarni jalb etish, Masalan yangi yerlarni ochib, ekin maydonlarini kengaytirish, mollar sonini ko'paytirish, ishlovchilar sonini oshirish orqali amalga oshiriladi.

Bu xo'jaliqda nimasi bilan farq qiladi bunda pul munosabati bo'lmaydi, yaratilgan mahsulotni xo'jalikning o'zi xonaki qayta ishlaydi. Mas, natural chorvador xo'jaligida jundan matolar, gilam, palos va kigizlar, teridan esa oyoq kiyimlari, po'stin tayyorlanadi. Natural xo'jalik ibtidoiy davr va o'rta asrlarda rivoj topgan. Tovar xo'jaligiga asoslangan bozor munosabatlariga o'tilgach, u o'z ahamiyatini yo'qotadi.

1.5 Tovar ishlab chiqarish - Tovar o'z ma'nosida (rus.) — 1) ishlab chiqarish, iqtisodiy faoliyatning moddiy buyum shaklidagi har qanday mahsulot;

2) sotuvchilar va xaridorlar o'rtasida oldi-sotdi, bozor munosabatlari ob'yekti.

Tovar ishlab chiqarishning yuzaga kelishi hamda rivojlanishining sabablari. Kishilik jamiyatining rivojlanishida ijtimoiy xo'jalikni tashkil etishning ikkita umumiy iqtisodiy shakli ajralib turadi . Umumiy iqtisodiy shakllarning tarixan

1. Natural ishlab chiqarish hisoblanadi. Ijtimoiy xo'jalikning bu shaklida yaratilgan mahsulotlar ishlab chiqaruvchining o'z ehtiyojlarini qondirish uchun , xo'jalik ichki ehtiyojlari uchun mo'jallangan .Tovar ishlab chiqarish natural xo'jalikning rivojlanishi, mahsulotlar turi va miqdorining o'sishi natijasida paydo bo'ladi.

2. Tovar ishlab chiqarish, ya'ni tovar xo'jaligida kishilar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlar buyum orqali, ular mehnati mahsulini oldi-sotdi qilish orqali namoyon bo'ladi.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfséries.com

20th July 2025

Ular orasidagi farq shundaki: bunda tovar yoki xizmat o'zining iste'moli uchun emas, balki bozorga sotish uchun yaratiladi. Tovar ishlab chiqarish ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasidagi munosabatlarning, mehnatni o'lchash va uni jamiyatning jami mehnati tarkibiga kiritishning o'ziga xos usulidir. Natural xo'jalikni siqib chiqarish va tovar ayirboshlashning rivojlanish jarayoni mehnat taqsimotining chuqurlashuvi, ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi, xususiy mulkning vujudga kelishi va rivojlanishi asosida individual xo'jaliklarning tovar ayirboshlashga, oldi-sotdiga o'tish yo'li bilan boradi.

1.6 Moddiy resurslarni ishlab chiqarish – bu asli iqtisodiyot taraqqiyoti va ishlab chiqarish jarayoni uchun zarur bo'lgan moddiy-ashyoviy ne'matlar yig'indisi, moddiy-ashyoviy shakldagi iqtisodiy resurslar. Moddiy resurslarga tabiiy boyliklar, materiallar, mashina-mexanizmlar, bino-inshootlar, asbob-uskuna va qurilmalar kiradi. Moddiy resurslar ishlab chiqarishning buyumlashgan yoki moddiy omilini tashkil qiladi.

Moddiy resurslarni ishlab chiqish jarayoni esa - ishlab chiqarish jarayonida bevosita ishtirok etadi, ma'lum mahsulot turini yaratishda o'zining dastlabki ko'rinishini o'zgartirib, ishlab chiqarish yoki shaxsiy iste'mol uchun yarokdi bo'lgan mahsulot ko'rinishini oladi.

Moddiy resurslar mavjudligi jihatidan 2 ga bo'linadi:

1. amalda ishlatilayotgan Moddiy resurslar (mas, tabiiy boyliklar Moddiy resurslar sifatida hisobga olinishi, qazib olinib, qayta ishlanishi va tayyor mahsulotga yoki xom ashyoga aylantirilishi);
2. ishlatilishi kelajqda ko'zda tutilgan moddiy resurslar.

Moddiy resurslar ham cheklanishi mumkin ya'ni ulardan tejamkorlik bilan foydalanish, Moddiy resurslarni ishlatishda noan'anaviy yo'llarni qo'llash, fantexnika taraqqiyoti natijalaridan unumli foydalanib, tejamkor texnologiyalarni yaratish va qo'llash muhim ahamiyatga ega.



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

1.7 Ishlab chiqarishnin samaradorligi – samaadorlik resurs sarflari bilan ishlab chiqarishdan olingan natijaning taqqoslanishini bildiradi, ya'ni u nima sarflab nimaga erishilganini ko'rsatadi. Korxonada miqyosida iqtisodiy faoliyat, iqtisodiy dasturlar va tadbirlarning foydali natijalar berishi, olingan iqtisodiy samaraning muayyan qiymatga ega bo'lgan resurslarni qo'llagan holda eng yuqori ishlab chiqarish hajmiga erishishga sabab bo'lgan ishlab chiqarish omillari, resurslar sarflariga nisbati bilan tavsiflanadi. Ishlab chiqarish samaradorligi korxonada faoliyatining yakuniy natijasini ko'rsatadi.

Ishlab chiqarish samaradorligi formulasi mahsulot hajmini (yoki qiymatini) ishlab chiqarishga ketgan xarajatlarga bo'lish orqali aniqlanadi. Formula quyidagicha:
Samaradorlik = (Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (yoki qiymati)) / (Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar)

Bu formulada:

- **Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi (yoki qiymati)**

- bu korxonada tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori (masalan, son, tonna, litr) yoki ularning qiymati.

- **Ishlab chiqarishga ketgan xarajatlar**

- bu ishlab chiqarish jarayonida sarflangan barcha xarajatlar (masalan, xom ashyo, mehnat, energiya, jihozlar uchun amortizatsiya va boshqalar).

Ushbu formula ishlab chiqarish samaradorligini ko'rsatadi, ya'ni har bir sarflangan xarajat birligiga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligini ko'rsatadi. Samaradorlik qanchalik yuqori bo'lsa, ishlab chiqarish shunchalik samarali bo'ladi

Xulosa

Xulosa qilib aytganda ushbu maqolani yozishdan maqsad iqtisodiyotda ishlab chiqarish qanday kirib kelgani. Ya'ni ishlab chiqarishning iqtisod uchun qay daraja muhim o'rin tutishi ko'zda tutildi. Bu maqolada iqtisodiy samaradorlik, iqtisodiy o'sish va uning keng ko'lamlilari bilan tanishildi.



E CONF SERIES



International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Madrid, Spain

Website: econfseries.com

20th July 2025

Foydalanilgan manbalar :

1. <https://www.google.com/search?q=ishlab+chiqarish+samaradorligi+formulasi&oq=ishlab+chiqarish+samaradorligi+fo&aqs=chrome.1.69i57j0i22i30j0i512i546j>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Moddiy_resurslar
3. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Tova>
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Natural_xo%CA%BBjalik
5. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Kapital>
6. https://drive.google.com/file/d/1tx_lOt1MHZh6NX4Vs_1GiPn9diIRRwiA/view
7. IQTISODIYOT NAZARIYASI – A. O`lmasov , A.Vahobov